Muxtorov Dilshodbek

Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OKSIMORONLARNING STATIK VA DINAMIK XUSUSIYATLARI SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida oksimoronlarning statik va dinamik xususiyatlari semantik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda til hodisalarining ikki tomonlama tabiati statik (barqaror, leksik-semantik) va dinamik (kontekstual, figurativ) jihatlari yoritilgan. Oksimoronlar qarama-qarshi tushunchalarni uyg'unlashtiruvchi stilistik birlik sifatida tahlil qilinib, ularning matndagi obrazlilik, emotsional va madaniy konnotatsiyalarni hosil qilish mexanizmlari ochib berilgan. Ikki tildagi misollar (bittersweet victory, sweet agony, alone together; noaniq aniq, kulib yig'lash, sokin hayqiriq) asosida oksimoronlarning kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari oksimoronlarning statik va dinamik jihatlarini uyg'un holda o'rganish til hodisalarining murakkabligini to'liq anglashga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oksimoron, statik xususiyat, dinamik xususiyat, semantik tahlil, konnotatsiya, figurativ ma'no, kontekst, stilistika, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tahlil.

Tilshunoslikda til hodisalarining semantik xususiyatlarini tahlil qilishda ularning statik va dinamik xususiyatlarini farqlash muhim ilmiy asosga ega. Statik va dinamik xususiyatlarni semantik jihatdan o'rganish, til hodisasining ichki tuzilishini, ma'nolar tizimini hamda uning nutq jarayonidagi harakatlanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Tilshunos olim M.N. Kojina ta'kidlashicha, "til hodisalari har doim ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, ularni o'rganishda nafaqat grammatik va morfologik shakllarni, balki ma'nolarning harakatlanishi va kontekstual tafovutlarini ham hisobga olish zarur" [1].

Bizningcha, til hodisalarining "statik va dinamik" xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish, ularning asl mohiyatini ochib berishda juda muhimdir. Chunki til hodisalari doimiy emas, balki dinamik xarakterga ega bo'lib, ular matn va nutq kontekstida yangi semantik tafovutlar hosil qiladi. Bu esa til hodisalarining jamiyatdagi roli, madaniyat bilan aloqasi hamda inson tafakkuridagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu sababli "statik va dinamik" xususiyatlarni kompleks yondashuvda o'rganish tilshunoslik tadqiqotlarini yanada mukammal va zamonaviy qilishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

1. Statik va dinamik xususiyatlarning nazariy asoslari

Statik xususiyatlar deganda, til birliklarining ichki semantik tuzilishi, ya'ni ularning asosiy ma'nosi va tarkibiy qismi tushuniladi. Bu xususiyatlar doirasida so'zning leksik ma'nosi, denotativ va konnotativ qatlamlari, shuningdek, uning ma'no maydoni aniqlanadi. Masalan, "quvonch" leksemasi statik nuqtai nazardan "baxt, mamnuniyat, shodlik" kabi asosiy semantik komponentlarga ega bo'lib, bu ma'no o'zgarishi ko'pincha o'zgarmas asosiy tuzilishga ega. Statik xususiyatlar til birliklarining ma'nolarini leksikografik manbalar yordamida tavsiflash va izohlashga imkon beradi.

Dinamik xususiyatlar esa til birliklarining ma'nolarining kontekstda o'zgarishi, yangicha ma'nolar paydo qilishi, ko'pma'nolilik, metaforik ko'chishlar, oksimoronlar va boshqa figurativ vositalar orqali semantik kengayishini bildiradi. Dinamik semantika tilning faqat shakliy tizimi bilan emas, balki uni ishlatuvchi insonning kognitiv faoliyati, madaniy tafakkuri, ijtimoiy konteksti bilan uzviy bog'liq. Tilshunos I.V. Arnoldning ta'kidlashicha, "tilning dinamik semantikasi aynan matnda yangi obrazlar yaratish, emotsional ifodaning kengayishi va konnotativ ma'nolar orqali matnga stilistik boylik olib kiradi" [2].

Statik va dinamik xususiyatlar til hodisasining ikki tomonlama tabiatini ko'rsatadi. Masalan, "yurak" so'zi statik jihatdan "insonning ichki organi" degan ma'noga ega bo'lsa, dinamik jihatdan esa "jasorat", "sevgi", "ruhiy holat" kabi turli konnotativ ma'nolar bilan boyib, matnda yangi obrazlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, semantik tahlil jarayonida til hodisalari faqat statik leksik qatlamda emas, balki dinamik kontekstual qatlamda ham o'rganilishi kerak. Chunki statik ma'no ko'pincha til tizimining ichki tuzilishini tushuntiradi, dinamik ma'no esa nutq jarayonida yuzaga keladigan semantik tafovutlarni ochib beradi.

Tilshunos A.P. Babushkin kontseptual tahlil doirasida til birliklarining semantik rivojlanishini ham tahlil qilib, ularni "statik kontsept" va "dinamik kontsept" sifatida ajratadi. U statik kontseptni "til tizimida mavjud bo'lgan asosiy semantik yadroni", dinamik kontseptni esa "inson tafakkurida yuzaga keladigan, kontekstdan kelib chiqadigan semantik yangiliklarni" ifodalovchi hodisa sifatida talqin qiladi [3]. Bu yondashuv til hodisalarining faqat ma'nosini tushunish bilan cheklanmay, balki ularning nutq jarayonidagi semantik tafovutlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Bizningcha, statik va dinamik semantik xususiyatlarni uyg'un holda o'rganish tilshunoslikda til hodisalarining murakkabligini to'liq anglashga yordam beradi. Chunki har bir til hodisasi faqat o'zining asosiy ma'nosi bilan emas, balki ishlatilayotgan vaziyatga mos ravishda o'zgarib, yangicha ma'nolar hosil qiladi. Bu esa tilning ijtimoiy va madaniy hayot bilan uzviy bog'liq ekanini yana bir bor isbotlaydi. Shu bois, statik va dinamik xususiyatlarni birgalikda tahlil qilish til hodisalarining semantik ko'lamini kengaytirishga va tilning kognitiv xususiyatlarini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi.

2. Oksimoron stilistik birlik sifatida

Oksimoronlar tilning ifoda vositalaridan biri sifatida nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik nutqda ham keng qo'llaniladigan va tilning obrazlilik darajasini oshirishga xizmat qiladigan muhim stilistik birliklardan biridir. Ingliz va o'zbek tillarida oksimoronlar semantik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarning uyg'unlashuvi orqali matnga kuchli estetik va emotsional yuk kiritadi. Shu sababli, ushbu birliklarni nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik va stilistik qatlamlarda ham tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Oksimoronlarning semantik xususiyatlarini o'rganishda statik va dinamik jihatlarni farqlash muhim nazariy asosga ega. Statik xususiyatlar oksimoronning ichki semantik tuzilishini, ya'ni uning asosiy ma'nosini, leksik va sintaktik bog'lanishlarini o'z ichiga oladi. Dinamik xususiyatlar esa oksimoronning matndagi kontekstual kengayishi, turli vaziyatlarda qo'llanishi va figurativ ma'nolar hosil qilishi bilan bog'liq.

Tilshunos I.V. Arnold oksimoronlarni "semantik paradoks" sifatida tavsiflab, ularning matnda intensiv emotsional yuk yaratishini ta'kidlagan [2]. M.N. Kojina esa oksimoronlarni "semantik kontrast orqali obrazlilikni oshiruvchi stilistik birlik" sifatida baholagan [1].

Ingliz tilida "jumbo shrimp", "deafening silence", "living dead" kabi oksimoronlar statik jihatdan grammatik jihatdan izchil va shaklan to'g'ri bo'lsa-da, ular dinamik jihatdan matnning konteksti orqali yangi ma'nolar hosil qiladi, o'quvchini hayratga soluvchi obraz yaratadi. O'zbek tilida esa "shirin azob", "dahshatli go'zallik", "abadiy xotira", "qora nur" kabi oksimoronlar ham xuddi shunday jarayonni aks ettirib, tilning ichki semantik qatlamlarini ochib beradi.

Bizningcha, ushbu til birliklarining statik va dinamik jihatlarini qiyosiy o'rganish ikki tilda ham oksimoronlarning madaniy va kognitiv xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu orqali oksimoronlarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, ularning badiiy nutqdagi o'rni va ularning milliy-madaniy konnotatsiyalari aniqlanadi.

3. Oksimoronlarning statik xususiyatlari

Statik xususiyatlar tilning o'zgarmas, barqaror va doimiy qismlarini ifodalaydi. Bunday xususiyatlar, asosan, grammatik va semantik tuzilmalar orqali ifodalanadi. Statik til elementlari o'zgarishga qarshi turadigan va tizimli holatda bo'lib, ularning asosiy vazifasi ma'lum bir normani ifodalashdan iborat. Statik xususiyatlar nafaqat tilning strukturaviy jihatlariga, balki tilning sotsial va madaniy tizimlar bilan bog'liqligiga ham oid.

Tahlilni "bittersweet victory" (achchiq-shirin g'alaba) iborasi misolida ko'rib chiqamiz. Statik jihatdan, ingliz tilidagi ushbu iborada "bittersweet" sifat tarkibi "achchiq va shirinlikni" bildiradi, "victory" esa g'alabani anglatadi. Bu ifoda grammatik jihatdan "sifat + ot" tartibida to'g'ri tuzilgan bo'lib, uning asosiy semantik yadrosi qarama-qarshi ma'nolarni birlashtirish orqali hosil bo'lgan birlik sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida esa "noaniq aniq" iborasi ham statik jihatdan grammatik jihatdan izchil bo'lib, "sifat + sifat" shaklida berilgan. Bunda "noaniq" so'zi mavhumlikni, "aniq" esa ravshanlikni bildiradi. Demak, har ikki tildagi oksimoronlar statik darajada o'zining barqaror leksik-grammatik tuzilishiga ega bo'lib, ularning ichki semantik yadrosi qarama-qarshi tushunchalarning uyg'unligiga asoslanadi.

4. Oksimoronlarning dinamik xususiyatlari

Dinamik jihatdan ingliz tilidagi "bittersweet victory" turli kontekstlarda, masalan, jang yoki sport matnlarida qo'llanilib, natijaga erishish jarayonidagi hissiy zo'riqishni, kuchli hayajon va quvonch bilan birga kelgan og'riqni tasvirlaydi. Bu yerda matn konteksti asosiy semantik yadroni kengaytiradi va figurativ ma'no hosil qiladi.

O'zbek tilida esa "noaniq aniq" ifodasi, masalan, biror voqeani tushuntirishda yoki muammoni izohlashda ishlatilib, voqea yoki narsaning tushunarsiz, ammo ayni paytda ma'lum bir belgi bilan bog'lanishini anglatadi. Bu esa matnda semantik kengayishga, murakkab hissiy tushunchalar ifodasiga sabab bo'ladi.

Shu tarzda, ingliz va o'zbek tillaridagi oksimoronlar statik jihatdan grammatik va semantik qatlamda izchil tuzilgan bo'lsa-da, dinamik jihatdan matn kontekstida yangi obrazlarni, hissiy va madaniy konnotatsiyalarni yaratadi.

5. Qiyosiy tahlil: "sweet agony" va "kulib yig'lash"

Ingliz va o'zbek tillarida oksimoronlarning statik va dinamik xususiyatlarini tahlil qilish davomida yana bir misol sifatida ingliz tilidagi "sweet agony" va o'zbek tilidagi "kulib yig'lash" birikmalarini ko'rib chiqamiz.

Statik jihatdan ingliz tilidagi "sweet agony" ifodasida "sweet" sifati yoqimli, lazzatli hissiyotlarni bildirsa, "agony" esa og'riq, azob kabi salbiy holatlarni anglatadi. Bu ibora grammatik jihatdan "sifat + ot" tuzilishida bo'lib, ularning qarama-qarshi ma'nolarni uyg'unlashtirib, obrazli birlik sifatida yuzaga kelishini ta'minlaydi. O'zbek tilidagi "kulib yig'lash" birikmasi ham grammatik jihatdan izchil bo'lib, "fe'l + fe'l" shaklida tuzilgan, unda "kulib" so'zi quvonch, "yig'lash" esa qayg'u va azobni bildiradi.

Dinamik jihatdan ingliz tilidagi "sweet agony" adabiy matnlarda yoki hayotiy voqealarda, masalan, sog'inch yoki intizorlik kabi hissiy kechinmalarni ifodalashda ishlatiladi. Bu ifoda kontekstda og'riqli bo'lsa-da, o'ziga xos zavq bag'ishlaydigan hissiy tajribani yetkazadi va o'quvchida murakkab psixologik holatni uyg'otadi.

O'zbek tilida esa "kulib yig'lash" iborasi ko'pincha kutilmagan vaziyatlarda, insonning ichki ruhiy qarama-qarshiliklarini tasvirlashda, masalan, quvonch va qayg'uning bir paytda mavjudligini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu esa matnda ko'p qirrali obraz yaratishga yordam beradi va o'quvchida kuchli emotsional taassurot qoldiradi.

Shunday qilib, har ikki tildagi oksimoronlar statik jihatdan grammatik va semantik qatlamda mukammal tuzilgan bo'lsa-da, dinamik jihatdan ular matnda kontekst orqali yangi obrazlar, figurativ ma'nolar va madaniy konnotatsiyalarni hosil qiladi. Bunday tahlil oksimoronlarning matndagi stilistik va kognitiv yukini ochib berishga yordam beradi.

6. Qiyosiy tahlil: "alone together" va "sokin hayqiriq"

Ingliz va o'zbek tillarida oksimoronlarning statik va dinamik xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berish uchun yangi misollar sifatida ingliz tilidagi "alone together" va o'zbek tilidagi "sokin hayqiriq" birikmalarini ko'rib chiqamiz.

Statik jihatdan ingliz tilidagi "alone together" iborasida "alone" so'zi yolg'izlikni, "together" esa birgalikni bildiradi. Bu ibora grammatik jihatdan birlikning ichki semantik yadrosi qarama-qarshi tushunchalarning uyg'unligiga asoslangan holda tuzilgan. O'zbek tilidagi "sokin hayqiriq" iborasi esa grammatik jihatdan "sifat + ot" tartibida tuzilgan bo'lib, "sokin" tinchlik va sokinlikni, "hayqiriq" esa baland ovozli, kuchli hissiy ifodani bildiradi.

Dinamik jihatdan ingliz tilidagi "alone together" iborasi asosan shaxsiy va jamiyat hayotidagi ijtimoiy yakkalanish va yaqinlikning paradoksal birlashuvini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ibora, masalan, pandemiya sharoitida yoki ruhiy yaqinlik bo'lsa-da, jismonan uzoqlashish holatlarini tasvirlash uchun qo'llanib, o'quvchiga murakkab psixologik holatni yetkazadi.

O'zbek tilida esa "sokin hayqiriq" iborasi ko'pincha ichki iztirob, ruhiy zo'riqish va inson ruhiyatidagi murakkab emotsional portlashni tasvirlashda ishlatiladi. Shu bilan birga, bu ibora matnda ichki qarama-qarshilik va ruhiy iztirobni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Bizningcha, ushbu misollar ikki tilda ham statik jihatdan barqaror va mukammal tuzilgan bo'lsa-da, dinamik jihatdan ular o'zining kontekstual kengayishi bilan o'quvchida kuchli emotsional va ma'naviy ta'sir uyg'otadi. Shu bois, oksimoronlarni tahlil qilishda ularning statik va dinamik xususiyatlari uyg'un tarzda ko'rilishi zarur, chunki bu yondashuv matnning ichki va tashqi qatlamlarini to'liq yoritishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi oksimoronlar statik darajada o'xshash tuzilish qonuniyatlariga ega bo'lib, ular asosan "sifat + ot", "sifat + sifat" yoki "fe'l + fe'l" modellarida shakllanadi. Bu statik darajadagi o'xshashlik ikki tilning ham qarama-qarshi tushunchalarni grammatik jihatdan izchil tarzda birlashtira olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Dinamik darajada esa oksimoronlar har bir til muhitida o'ziga xos madaniy-kognitiv konnotatsiyalar bilan boyib boradi. Ingliz tilidagi oksimoronlar ko'proq ijtimoiy-psixologik holatlarni (alone together — ijtimoiy yakkalanish), o'zbek tilidagi oksimoronlar esa ruhiy-emotsional kechinmalarni (sokin hayqiriq — ichki iztirob) ifodalashga moyil ekanligi aniqlandi.

Quyidagi jadval ikki tildagi oksimoronlarning statik va dinamik xususiyatlarini qiyosiy aks ettiradi:

Oksimoron	**Til**	**Statik tuzilish**	**Dinamik (kontekstual) ma'no**
bittersweet victory	ingliz	sifat + ot	hissiy zo'riqish, quvonch va og'riq uyg'unligi
sweet agony	ingliz	sifat + ot	sog'inch, intizorlikdagi lazzatli azob
alone together	ingliz	sifat + sifat	ijtimoiy yakkalanish va yaqinlik paradoksi
noaniq aniq	o'zbek	sifat + sifat	tushunarsiz, ammo belgili holat
kulib yig'lash	o'zbek	fe'l + fe'l	quvonch va qayg'uning bir paytda kechishi
sokin hayqiriq	o'zbek	sifat + ot	ichki iztirob, ruhiy portlash

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, statik darajadagi grammatik izchillik dinamik darajada turli figurativ va emotsional ma'nolar yaratish uchun asos vazifasini bajaradi. Bu esa Babushkin tomonidan taklif qilingan "statik kontsept" va "dinamik kontsept" yondashuvini [3] amaliy misollarda tasdiqlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oksimoronlarning semantik tabiatini to'liq ochish uchun ularni statik va dinamik xususiyatlar birligida o'rganish zarur. Statik xususiyat oksimoronning barqaror grammatik-leksik tuzilishini, dinamik xususiyat esa uning kontekstual semantik kengayishini ifodalaydi.
2. Ingliz va o'zbek tillarida oksimoronlar statik darajada o'xshash strukturaviy modellarga ega bo'lsa-da, dinamik darajada milliy-madaniy va kognitiv jihatdan farqlanadi.
3. Oksimoronlarning dinamik xususiyatlari matnga kuchli emotsional, estetik va ma'naviy yuk kiritib, o'quvchida murakkab psixologik holatlarni uyg'otadi.
4. Statik va dinamik xususiyatlarni uyg'un holda o'rganish til hodisalarining ijtimoiy-madaniy hayot bilan uzviy bog'liqligini, shuningdek, tilning kognitiv qirralarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Demak, oksimoronlarning statik va dinamik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish til tizimining semantik va madaniy qatlamlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, qiyosiy tilshunoslik va kognitiv tilshunoslik sohalarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М.: Просвещение, 1993. - 224 с.
2. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов. - М.: Флинта: Наука, 2002. - 384 с.

4. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. - Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 1996. - 104 с.
5. Galperin I.R. Stylistics. - Moscow: Higher School Publishing House, 1977. - 332 p.
6. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. - М.: Языки славянской культуры, 2004. - 560 с.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. - М.: Издательский центр "Академия", 2001. - 208 с.
8. Mahmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent: Fan, 2018. - 240 b.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. - 168 b.
10. Yo'ldoshev B. O'zbek tili stilistikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2009. - 220 b.
11. Leech G.N. A Linguistic Guide to English Poetry. - London: Longman, 1969. - 240 p.